



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AXBOROT  
KOMMUNIKATSIYASI VA MEDIA PLATFORMALAR RIVOJIDA BOLALAR  
JURNALISTIKASINING AHAMIYATI

**Muxabbat Beqqulova Muxamadali qizi**

*O'zJOKU 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Tezisdagi raqamli texnologiyalar va media platformalarning jadal rivojlanishi, shuningdek, axborot almashuvining yangi shakllarini yaratishdagi o'zgarishlar jurnalistikaga katta ta'sir o'tkazayotganligiga urg'u berilgan. Raqamli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda bolalar jurnalistining yangi roli va vazifalari tahlil qilinib, yangi yondashuvlarni kiritish zaruriyati borligi o'rganilgan. Tezisdagi maqsad – bolalar jurnalistikasining rivojlanishini va uning jamiyatdagi o'rnini tushunishga qaratilgan ilmiy va amaliy tahlilni taqdim etishdir.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, kontent, media platformalari, raqamlashuv jarayoni.

**Abstract:** The thesis emphasizes that the rapid development of digital technologies and media platforms, as well as changes in the creation of new forms of information exchange, are significantly impacting journalism. It analyzes the new role and tasks of children's journalists in digital media and social networks and studies the need to introduce new approaches. The thesis aims to present a scientific and practical analysis aimed at understanding the development of children's journalism and its place in society.

**Keywords:** Content, digitalization process, information technologies, media platforms.

### **Kirish**

Axborot asrida har bir ommaviy axborot vositalari o'z auditoriyasiga ega. Jurnalistda ham auditoriyada ham tanlov imkoniyati borligi hech kimga sir emas. Jurnalist istalgan ko'rinishda material uzata oladi, auditoriya esa qiziqishlaridan kelib chiqib media mahsulot tanlaydi. Dunyo miqyosida kuzatilayotgan "axborot asri" insonning axborotga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yubordi. Nafaqat yakka shaxs, balki jamiyat va davlatlar darajasida axborot oqimining o'zgarishlariga moslashish, u qo'yayotgan yangi-yangi talablarga bo'ysunish o'ziga xos majburiyatga aylanmoqda.

Bu esa o'z navbatida, ommaviy axborot vositalari faoliyatida ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ommaviy axborot vositalari mohiyatan keng ommaning mafkurasi, qiziqishlari, talab va istaklari bilan hisoblashadi, ularga moslashadi, o'z faoliyat yo'nalishlarini belgilashda ana shu omillardan kelib chiqadi"(1).

Raqamli texnologiyalar va media platformalarining jadal rivojlanishi, shuningdek, axborot almashishning yangi shakllarini yaratish, jamiyatda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat kattalar va professional jurnalistlarga, balki bolalarga ham ta'sir ko'rsatdi. Raqamli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa interaktiv



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



platformalar bolalarga o‘z fikrlarini ifoda etish, axborot yaratish va taqsimlash imkoniyatlarini yaratdi. Bu jarayon, bolalar jurnalistining yangi roli va vazifalarini shakllantirishi, ularning axborot sohasidagi faoliyatiga yangi yondashuvlarni kiritish zaruriyatini tug‘dirmoqda. “So‘nggi o‘n yil ichida axborot makonida haqiqatga aylangan axborot portlashi, O‘zbekistonning zamonaviy jamiyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan global axborot makoniga qo‘shilishiga olib keldi. Sivilizatsiya, boshqa tomondan, madaniy

estetik va axloqiy g‘oyalar muhim rol o‘ynaydigan bolalarda yangi qadriyatlar yo‘nalishlarini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Bolalar jurnalistikasi va bolalar audiovizual media tadbirkorlar va iste‘molchilar jamiyatiga mansub yangi davr insonini tarbiyalay boshladi” (2).

Raqamli texnologiyalar va platformalarning rivojlanishi bugungi kunda jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur ta‘sir ko‘rsatyapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jumladan:

Axborot almashinuvining tezligi – Raqamli texnologiyalar axborot tarqatish, izlash va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Media platformalarining ko‘payishi – YouTube, TikTok, Instagram va boshqa raqamli platformalar foydalanuvchilarga kontent yaratish va ulashish imkonini berdi. Ta‘limdagi transformatsiya – Onlayn kurslar, raqamli darsliklar va virtual sinflar tufayli ta‘lim olish geografik joylashuvga bog‘liq bo‘lmay qoldi. Bolalar kontenti va xavfsizligi – Raqamli platformalarda bolalar uchun maxsus kontentlar yaratilmoqda, biroq ularning xavfsizligini ta‘minlash muhim masalaga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va axborot jamiyati – Raqamli platformalar orqali odamlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy axborotga oson kirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

“Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar erta yoshdan passiv iste‘molchidan faol iste‘molchiga aylanadi, 3-5 yoshdan esa mediakontent tanlashga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi (Скоробо-гатих и др., 2020). Masalan, Rossiyada bolalar televizor, smartfon va Internetdan keng foydalanishadi, youtube orqali o‘z tengdoshlarining videobloglarini kuzatadilar va ko‘ngilochar dasturlarni tomosha qiladilar (Бамбышева, 2023). Qirg‘izistonda bolalar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar va mesenjerlardan foydalanish holatlari ko‘paymoqda. Eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar – TikTok, YouTube, Instagram bo‘lsa, eng mashhur messenjerlar – WhatsApp, Telegram, Discord sanaladi (Дети и медиапотребление. Кыргызстан 2021). Yurtimizda ham bolalar asosiy vaqtini televizor, mobil qurilma, Internetda o‘tkazmoqda. Ammo chekka qishloqlarda kichkintoylar va o‘smirlar Internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi deb bo‘lmaydi” (3).

Bolalar jurnalistikasi nima uchun muhim?

Bolalar jurnalistikasi orqali bolalar va yoshlarning dunyoqarashi, axborot yaratish va tarqatishdagi ahamiyati, shuningdek, bu sohada yuzaga keladigan etika va mas‘uliyat masalalari o‘rganiladi. Bolalar jurnalistikasi, bolalarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga yordam beradi, ular uchun axborot olish imkoniyatini yaratadi. Bolalar





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘zlarini ifodalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va jamiyatda o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, bu jurnalistika bolalar huquqlari, ekologiya, o‘zaro hurmat, ta’lim va sog‘liq kabi mavzularni yoritadi, bu esa ularning ongini va dunyoqarashini shakllantiradi. Bolalar jurnalistikasining zarurligi shundaki, u yosh avlodni axborotga erkin kirish huquqi bilan ta’minlaydi va ularni faollikka, mas’uliyatga chaqiradi. Bu, shuningdek, bolalarni jamiyatga nisbatan mas’uliyatli va ongli fuqaro sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

“Mustaqil ekspert Yana Belskayaning ta’kidlashicha, bolalar kontentiga juda yuqori va barqaror talab mavjud. Qanchadanqancha yangi telekanallar paydo bo‘lmasin, ularni bolajonlar katta qiziqish bilan tomosha qiladilar. Shu bois bolaga ma’naviy ozuqa juda ehtiyotkorlik bilan berilishi kerak. Unga insonga hurmatsizlik kayfiyatlarini tug‘diradigan narsalarni emas, balki hammadan oldin uni ulug‘lovchi narsalarni taqdim etish kerak. Insonni bolalarga, avvalo buyuk qahramon, noma’lum mamlakatlarni

kezgan qo‘rqmas sayyoh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashchi, o‘z orzu-xayollariga sodiq personaj sifatida ko‘rsatish zarurdir”(3).

Bolalar yozuvchisi Qobiljon Shermatovning quyidagi fikrlari orqali – “Bugun bolalar jurnalistining yelkasidagi mas’uliyat juda katta. Ular ham bolalar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Bugungi kun bolalarini uchar gilamlar qiziqtirishi juda qiyin. Ularga zamonaviy gadjetlar, smartfonlar qiziq. Haqiqiy ijodkor mana shunday davrda ham bolaga kerakli asarni bera olishi kerak. Bir kunda bitta saqichning reklamasi yuz martalab qo‘yiladi. Agar qaysidir manfaatli kitob ham shuncha reklama qilinsa jamiyatda katta o‘zgarish boshlanadi” - raqamli transformatsiya jarayonida jurnalistlar faoliyatiga yangi va ijodiy yondashuvlarni kiritilishi kerakligini anglashimiz mumkin. Bolalar uchun maqsadli kontent tayyorlashda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish — bu nafaqat ularning ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, madaniy merosga hurmat kabi fazilatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

1. Qadriyatlarni zamonaviy formatda berish, masalan:

Qahramonlar orqali: O‘zbek xalq ertaklari qahramonlari asosida komiks, animatsion videolar yoki mobil o‘yinlar yaratish. Real hayotdagi namunalar: Mashhur o‘zbek san’atkorlari, sportchilari, olimlari hayotidan motivatsion hikoyalar tayyorlash.

2. Bolalarga yaqin tilda va obrazlarda, ya’ni :

Oddiy, jonli til — so‘z boyligi yoshga mos, ma’noli bo‘lishi lozim.

Multfilm yoki boshqa formatdagi yangiliklar — “Bugun biz Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida bilib oldik” tarzidagi ssenariylar bolaga qiziq bo‘ladi.

3. O‘yin shaklidagi yondashuv, misol uchun:

“Qadriyatlar viktorinasi” – qadimgi urf-odatlar, milliy taomlar, liboslar haqidagi interaktiv testlar. “Qadriyatlar sarguzashti” – bolalar virtual sayohat qilib, tarixiy joylarni kashf qilishi mumkin. Bolalar uchun mos kontentni aniqlash va yaratishda - ota-onalarning fikri muhim. Chunki ular farzandlari uchun eng yaxshi ta’lim, o‘yin, multfilmlarni tanlab, aqliy, ma’naviy rivojlanishiga



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ahamiyat berishadi. Ota-onalar va bolalar o'rtasida kommunikatsiyaning borligi tadqiqotimiz uchun ahamiyatlidir. Internet yoki raqamli kontentning xavfsizligini ta'minlashda ota-onalar har doim o'z qarashlariga ega bo'lganligi sababli ular o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish manfaatli kontentni yaratishda yordam beradi.

Telegram messenjerida ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan "Sizingcha bolalar uchun qanday kontent foydali?" so'rovnomamizda

58% ovoz "Tarbiyaviy va milliy", 38 % i esa "interaktiv va ta'limiy" variantlarni tanlashgan. Tahlil natijasi bolalar uchun foydali kontent yaratish zaruratini anglatadi. Shuningdek, bolalarga mo'ljallangan kontentda o'z madaniyatimiz, urf-odatlarimiz aks etishini, shunchaki ko'ngilochar emas, balki sifatli, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi kontent kamligini bildiradi. Chet el media mahsulotlarining barchasi ham o'zbek bolalari uchun kerakli va xavfsiz emas. Bu esa jurnalistlar faoliyatiga o'zgarishlar kiritish va yangi yondashuvlarni tatbiq etish kerakligini anglatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimi tezlashib, media platformalar xilma-xillashmoqda. Bu jarayonda bolalar auditoriyasi ham faol axborot iste'molchisi, hatto ayrim hollarda axborot yaratuvchisiga aylanmoqda. Shunday sharoitda bolalar jurnalistikasi nafaqat tarbiyaviy, balki raqamli savodxonlikni oshiruvchi, axborot madaniyatini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Tadqiqotlar va muhokamalar shuni ko'rsatdiki, bolalar jurnalistikasining raqamlashuvdagi o'rni quyidagilarda yaqqol namoyon bo'lmoqda:

-Media sohasiga bolalar qarashlarini olib kirish orqali axborot muhitini yanada inklyuziv qilish;

-yosh avlodni axborot tanqidiy tahliliga o'rgatish;

-milliy va madaniy qadriyatlarni global raqamli makonda targ'ib qilish;

Raqamli xavfsizlik, media savodxonlik, va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini bolalar orasida mustahkamlash. Mavzuni tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni qo'llash mumkin:

- bolalar jurnalistikasini rivojlantirish uchun maxsus raqamli platformalar yaratish, bolalar tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish, tahlil qilish va baham ko'rish imkoniyatini beruvchi xavfsiz maydonlar tashkil etilishi zarur;

- mediasavodxonlikni kichik yoshdan boshlab o'rgatish – maktab dasturlariga bolalar uchun mo'ljallangan media madaniyat, axborotni tahlil qilish, yolg'on xabarlarini aniqlash kabi modullar kiritilishi lozim;

- milliy qadriyatlarni global media orqali targ'ib qilish – bolalar jurnalistikasi orqali o'zbek xalqining urf-odatlari, san'ati va tarixi jahon sahnasida targ'ib qilinishi muhim;

- xalqaro hamkorlikni kengaytirish – turli davlatlardagi bolalar jurnalistlari o'rtasida almashinuv dasturlari, qo'shma loyihalar va musobaqalar tashkil qilish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish kerak.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amrullo Karimov, Nargis Qosimova, Klimentina Ismoilova, Yusuf Hamdamov, Yulduz Ortiqova, Irismat Abduholiqov, Xayrullo Jo'rayev, Xilola Fayzullayeva. Audiovizual jurnalistika VI jild : ilmiy ommabop nashr. - O'zbekiston, 2021. - 356b.
2. Anvarova M. Journal of new century innovation// [http:// www.newjournal.org](http://www.newjournal.org) // July 2024
3. Zohidova Y, Xonnayeva U. International Journal of Media and Communications in Central Asia. // Tashkent. 2024. №4 son 79-93b.

